

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES	20
Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	30
Nosirova Kamola Alimovna	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	39
Xazratov Abror Panjiyevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	44
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA‘SIRI.....	51
Ro‘zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o‘g‘li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI.....	57
Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi	
MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO‘RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO‘RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO‘LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOY SUG‘URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI	64
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o‘g‘li	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	70
Гаффоров Шухрат Насриевич	
IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MADANIY TURIZM SOHASIDAGI SUBYEKTLAR TA‘SIRINI BAHOLASH USULLARI.....	77
Shohruzbek Ruziyev	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH SIYOSATINING DASTAKLARI.....	84
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O‘roqov	
RAQAMLI MEDIA BOZORI SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARIDA DAROMAD MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	87
Sharipova Shahlo Istamovna	
TIJORAT BANKLARINING AHOLINING HUDUDIY XARID QOBILYATIGA YO‘NALTIRILGAN KREDIT SIYOSATINI TASHKIL ETISH TIZIMI	92
Tursunov Bekmuxammad Omonovich, Qarshiyev O‘ktam G‘aybullo o‘g‘li	
INVESTITSYALAR BUXGALTERIYA HISOB I OBYEKTI SIFATIDA.....	99
I.Boymurodov	
TA‘LIM MUASSASALARIDA SAMARALI MENEJMENT MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	103
Makhmudov Sunnatjon Abdjabbor o‘g‘li, Ashurova Jasmina Jo‘ra qizi	
O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI MOLIALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA BUDJET XARAJATLARI DINAMIKASI	110
Sarsenbaev Baxitjan, Toremuratova Indira, Xayirbaeva Balzira	



TASHQI SAVDO FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING FISKAL VA INSTITUTSIONAL TAHLILI	115
Almuradov Ne'mat Abdullayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH IQTISODIY MEXANIZMLARINI ISLOH QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	123
Kuzieva Nargiza Ramzanovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA DAVLAT MULKINI BOSHQARISH VA XUSUSIYLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....	130
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISHLAB CHIQRISH TARMOQLARIDA SANOAT 4.0 MODELIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI TAHLILI.....	136
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULYAR VA AMALIY IQTISODIYOTNING INTEGRATSION MEXANIZMI ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	141
Bobojonova Zarnigor Shokirovna	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	149
Axmedov Umidjon	
NMSH TURIDAGI RELELARNING TEXNIK TAVSIFLARINI TEKSHIRISH UCHUN STEND ISHLAB CHIQISH.	156
Raxmonov Bobomurod, Qodirov Azamat, Yusupova Shirin, Mirzaraxmedov Zafar	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ВЛИЯНИЯ КЛАСТЕРОВ ИНДУСТРИИ РАЗВЛЕЧЕНИЙ НА РЕГИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ (ЗАНЯТОСТЬ, ДОХОДЫ, ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТОК, НАЛОГОВЫЕ ПОСТУПЛЕНИЯ): КРИТЕРИИ И МЕТОДЫ ОЦЕНКИ	163
Султонмуродов Мирзо-Улугбек Мукумжон углы	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ В ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ЦЕНТРАХ: ПРИМЕНЕНИЕ AI-ИНСТРУМЕНТОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ГРУПП.....	170
Джамолова Хилола Исматиллаевна, Алимова Машхура Тоирхоновна	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM YO'NALISHLARI	175
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	181
Raxmanov Zafar Yashinovich	
КРЕАТИВНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ РЕМЕСЕЛ В УЗБЕКИСТАНЕ	187
Хушназарова Махзуна Гуламджановна	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING XALQARO TURIZM OQIMLARIGA TA'SIRI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA MINTAQAVIY TAHLIL	193
Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	



MADANIY MEROS OBYEKTLARINING XALQARO TURIZM OQIMLARIGA TA'SIRI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA MINTAQAVIY TAHLIL

Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li

Buxoro davlat universiteti,

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasida doktoranti

e-mail: m.h.qilichov@buxdu.uz

ORCID: 0000-0001-5107-4876

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniy meros obyektlari va xalqaro turizm oqimlari o'rtasidagi bog'liqlik global miqyosda tahlil etilgan. Tadqiqot 2015–2024-yillar davomida UNWTO va UNESCO tomonidan taqdim etilgan ikkilamchi statistik ma'lumotlar asosida deskriptiv statistika hamda trend tahlili usullari yordamida amalga oshirilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro turistlarning 39 foizdan ortig'i madaniy turistlar sifatida tasniflanadi va har bir yangi UNESCO obyekti turistlar sonining o'rtacha 0,22 foizga oshishiga xizmat qiladi. Mintaqalar kesimidagi tahlil Yevropaning yetakchi o'rnini hamda Osiyo va Afrika mintaqalarida rivojlanish darajasidagi tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Maqolada madaniy meros barqaror turizmni rivojlantirishning strategik resursi sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: madaniy meros, xalqaro turizm, UNESCO, UNWTO, turizm oqimlari, barqaror turizm, mintaqaviy tahlil.

Abstract. This article examines the relationship between cultural heritage sites and international tourism flows at the global level. The study is based on secondary statistical data obtained from UNWTO and UNESCO for the period 2015–2024 and employs descriptive statistics and trend analysis methods. The results indicate that more than 39% of international tourists are classified as cultural tourists, while each additional UNESCO World Heritage Site contributes to an average 0.22% increase in tourist arrivals. The regional analysis confirms Europe's leading position and highlights developmental disparities across Asia and Africa. The article identifies cultural heritage as a strategic resource for sustainable tourism development.

Keywords: cultural heritage, international tourism, UNESCO, UNWTO, tourism flows, sustainable tourism, regional analysis.

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь между объектами культурного наследия и международными туристическими потоками на глобальном уровне. Исследование выполнено на основе вторичных статистических данных ЮНВТО и ЮНЕСКО за 2015–2024 годы с использованием методов дескриптивной статистики и трендового анализа. Результаты показывают, что более 39 % международных туристов относятся к категории культурных туристов, а включение каждого нового объекта в Список всемирного наследия ЮНЕСКО способствует увеличению туристического потока в среднем на 0,22 %. Региональный анализ подтверждает лидирующие позиции Европы и выявляет различия в уровне развития культурного туризма в странах Азии и Африки. В статье культурное наследие рассматривается как стратегический ресурс устойчивого развития туризма.

Ключевые слова: культурное наследие, международный туризм, ЮНЕСКО, ЮНВТО, туристические потоки, устойчивый туризм, региональный анализ.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda turizm sohasining jadal rivojlanishi va madaniy merosning global iqtisodiyotdagi o'rni tobora ortib bormoqda. 2024-yilda dunyo bo'yicha 1,4 milliard xalqaro turist qayd etilgan bo'lib, bu 2023-yilga nisbatan 11 foizlik o'sishni ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich turizm sohasining COVID-19 pandemiyasidan keyingi tiklanish jarayoni izchil davom etayotganini va yuqori natijalarga erishayotganini tasdiqlaydi. Madaniy turizm bugungi kunda barcha global sayohatlarning taxminan 40 foizini tashkil etib, madaniy meros nafaqat tarixiy xotirani saqlash, balki iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Madaniy meros va turizm o'rtasidagi munosabat uzoq vaqtdan beri olimlar diqqatini jalb qilib kelmoqda. Dallen J. Timothy, Arizona State University professori, madaniy merosni turizmning eng muhim resurslaridan biri sifatida ta'riflaydi. Uning 2011-yilda nashr etilgan va 2020-yilda ikkinchi nashri chop etilgan *Cultural Heritage and Tourism: An Introduction* asari mazkur soha bo'yicha muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Ikkinchi

nashrda geosiyosat, mojarolar, ortiqcha turizm (overtourism) va iqlim o'zgarishi kabi zamonaviy masalalar ham qamrab olingan.

McKercher va Du Cros (2002) madaniy turizm sohasiga muhim hissa qo'shgan olimlar sifatida e'tirof etiladi. Ularning *Cultural Tourism: The Partnership between Tourism and Cultural Heritage Management* asari madaniy turizm va meros menejmentining o'zaro munosabatini tahlil qilishda ziddiyat nazariyasining ayrim cheklovlarini ko'rsatib, ikki soha o'rtasidagi munosabatning yetuklik darajasiga ko'ra farqlanuvchi yetti xil modelini taklif etgan.

Greg Richards (2018) *Journal of Hospitality and Tourism Management* jurnalida chop etilgan tahliliy maqolasida madaniy turizm tadqiqotlari so'nggi o'n yilda sezilarli darajada kengayganini, xususan, madaniy iste'mol, meros konservatsiyasi va ijodiy iqtisodiyot bilan bog'liq masalalarga ilmiy qiziqish kuchayganini qayd etgan. UNWTO tomonidan 43 ta a'zo davlat va 61 nafar xalqaro ekspert ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot madaniy turizmning ahamiyatini tasdiqlagan: milliy turizm idoralarining 89 foizi madaniy turizmni o'z siyosatiga kiritganini ma'lum qilgan.

UNESCO Jahon merosi obyektlarining turizm oqimlariga ta'siri alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Yevropa Ittifoqining 27 davlati bo'yicha panel ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir yangi UNESCO obyekti turistlar sonining 0,22 foizga oshishiga xizmat qiladi va bu madaniy omillar orasida eng sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, obyekt Jahon merosi maqomiga ega bo'lgandan so'ng xalqaro turizm oqimi taxminan 7–10 foizga o'sishi qayd etilgan.

UNWTO a'zo davlatlarining keng ta'rif doirasidagi ma'lumotlariga ko'ra, barcha xalqaro turistlarning o'rtacha 39 foizdan ortig'i madaniy turistlar sifatida tasniflanadi va bu ko'rsatkich kelgusi yillarda ham o'sishda davom etishi kutilmoqda. Shu bilan birga, adabiyotlar sharhi madaniy turizm bo'yicha ayrim ilmiy masalalar yanada chuqurroq o'rganilishi zarurligini ko'rsatadi. Jumladan, madaniy turizmning yagona ta'rifi bo'yicha ilmiy yondashuvlar turlicha bo'lib qolmoqda, global miqyosdagi qiyosiy ma'lumotlarni kengaytirish ehtiyoji mavjud va mintaqalar o'rtasidagi tafovutlarni chuqurroq tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda (Richards, 2018; Timothy, 2020; UNWTO, 2023).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Madaniy meros obyektlari va xalqaro turizm oqimlari o'rtasidagi bog'liqlik zamonaviy turizm tadqiqotlarida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Timothy (2011; 2020) madaniy merosni turizmning asosiy resurslaridan biri sifatida baholab, tarixiy obyektlar turistlarga noyob va autentik tajriba taqdim etishini ta'kidlaydi. McKercher va Du Cros (2002) esa madaniy turizm va meros menejmenti o'rtasidagi munosabatni tahlil qilib, madaniy obyektlardan turizmga samarali foydalanish ularni saqlash va boshqarish tizimi bilan bevosita bog'liq ekanligini asoslaydi.

Richards (2018) madaniy turizm so'nggi yillarda global miqyosda kengayib borayotganini, uning madaniy iste'mol, merosni muhofaza qilish va ijodiy iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligini qayd etadi. UNWTO (2018) ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro turistlarning sezilarli qismi madaniy turizm motivlari asosida sayohat qiladi, bu esa madaniy meros obyektlarining xalqaro turizm oqimlarini shakllantirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

UNESCO Jahon merosi ro'yxati va UNWTO World Tourism Barometer ma'lumotlari madaniy meros obyektlari turistlar oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, Ciriaco-Valerio va boshqalar (2024) tomonidan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari misolida o'tkazilgan tadqiqot har bir yangi UNESCO obyekti turistlar sonining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Shu jihatdan, madaniy meros nafaqat tarixiy-madaniy qadriyat, balki barqaror turizmni rivojlantirish va hududiy iqtisodiy faollikni oshirishning strategik omili sifatida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot to'liq ikkilamchi ma'lumotlarga asoslangan kvantitativ tavsifiy (descriptive quantitative) tadqiqot sifatida tashkil etilgan. Tadqiqot doirasida birlamchi ma'lumotlar yig'ilmagan bo'lib, barcha ko'rsatkichlar xalqaro miqyosda tan olingan tashkilotlarning ochiq ma'lumotlar bazalaridan olingan.

Ma'lumotlar manbalari

Tadqiqotda quyidagi rasmiy xalqaro manbalardan foydalanildi:

UNWTO World Tourism Barometer (2015–2024) – xalqaro turistlar soni, mintaqaviy taqsimot va turizm daromadlari bo'yicha asosiy ma'lumotlar manbai;

UNESCO World Heritage List (2024-yil holatiga ko'ra) – Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan madaniy meros obyektlari soni va ularning geografik taqsimoti bo'yicha ma'lumotlar manbai;

UNWTO Tourism and Culture Synergies Report (2018) – madaniy turizm ulushi va rivojlanish tendensiyalari



bo'yicha ma'lumotlar manbai;

OECD Tourism Trends and Policies (2018) – a'zo davlatlar bo'yicha turizm ko'rsatkichlari hamda madaniy turizm salmog'iga oid ma'lumotlar manbai.

Tahlil 2015–2024-yillar oralig'ini qamrab oladi. Mazkur davrning tanlanishi COVID-19 pandemiyasidan oldingi o'sish bosqichini (2015–2019), pandemiya davridagi o'zgarishlarni (2020–2021) hamda tiklanish jarayonini (2022–2024) kompleks ravishda kuzatish imkonini beradi.

Geografik jihatdan tadqiqot UNWTO tomonidan ajratilgan oltita mintaqqa – Yevropa, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi, Amerika, Afrika, Yaqin Sharq hamda Janubiy Osiyo bo'yicha qiyosiy tahlilni o'z ichiga oladi.

Deskriptiv statistika usuli. Har bir mintaqqa va yil kesimida xalqaro turistlar soni, madaniy turizm ulushi (%), UNESCO obyektlari soni hamda turizm daromadlari (mlrd AQSh dollari) bo'yicha ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi. O'rtacha qiymatlar, mutlaq va nisbiy o'zgarishlar, shuningdek CAGR (Compound Annual Growth Rate – yillik o'rtacha o'sish sur'ati) ko'rsatkichlari aniqlandi.

Trend tahlili usuli. 2015–2024-yillar davomida xalqaro turizm oqimlarining vaqt qatori (time series) tahlili amalga oshirildi. Pandemiya davrining ta'siri alohida ko'rib chiqilib, 2015–2019 va 2022–2024-yillar mustaqil trend davrlari sifatida tahlil qilindi hamda ularning natijalari o'zaro taqqoslandi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar va metodlar - umumiy ko'rinish¹


Mezon	Tavsif
Tadqiqot turi	Kvantitatif tavsifiy tadqiqot
Ma'lumot turi	(Ikkilamchi (secondary data
Asosiy manba 1	(UNWTO World Tourism Barometer (2015-2024
Asosiy manba 2	(UNESCO World Heritage List (2024
Asosiy manba 3	(UNWTO Tourism & Culture Synergies Report (2018
Asosiy manba 4	(OECD Tourism Trends and Policies (2018
O'rganish davri	(yil 10) 2015-2024
Geografik qamrov	(UNWTO mintaqasi (global 6
Tahlil usuli 1	(Deskriptiv statistika (o'rtacha, $\Delta\%$, CAGR
Tahlil usuli 2	(Vaqt qatori trend tahlili (time series
Solishtirma davr	(Pandemiyagacha (2015-2019) vs tiklanish (2022-2024
Dasturiy ta'minot	Microsoft Excel, UNWTO ochiq ma'lumotlar bazasi

TAHLIL VA NATIJALAR

2019-yilda xalqaro turistlar soni 1,5 milliardga yetib, tarixdagi eng yuqori ko'rsatkichlardan birini qayd etdi. 2015–2019-yillar oralig'idagi besh yillik davrda yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR) 5,2 foizni tashkil etdi. COVID-19 pandemiyasi ta'sirida 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 400 milliongacha qisqardi, ya'ni bir yil ichida 73 foizlik pasayish kuzatildi.

2024-yilda dunyo bo'yicha 1,4 milliard xalqaro turist qayd etildi. Bu 2023-yilga nisbatan 11 foizlik o'sishni va pandemiyadan oldingi darajaning 99 foizini tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich turizm sohasining murakkab davrdan keyingi tiklanish jarayoni izchil davom etayotganini hamda xalqaro turizm oqimlari yuqori darajaga qaytayotganini ko'rsatadi (1-rasm).


1 Muallif ishlanmasi



1-rasm. Xalqaro turizm oqimlarining 2015–2024-yillar davomidagi tendensiyasi²

Mintaqalar kesimida Yaqin Sharq eng yuqori natijalardan birini qayd etib, 2024-yilda pandemiyagacha bo'lgan darajadan 32 foiz yuqori ko'rsatkichga erishdi va 76 million nafar turistni qabul qildi. Yevropa 2019-yilga nisbatan 1 foizlik o'sish bilan 757 million nafar turistni qabul qildi. Afrika esa 2019-yil ko'rsatkichidan 7 foiz yuqori natijaga erishib, 74 million nafar turist bilan ijobiy dinamikani namoyon etdi.

Osiyo va Tinch okeani mintaqasi 2024-yilda 2019-yil darajasining 82 foiziga yetdi. Mazkur holat mintaqada tiklanish jarayoni bosqichma-bosqich davom etayotganini ko'rsatadi. Bu, asosan, Xitoy va ayrim Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida sayohat cheklovlarining nisbatan kechroq bekor qilinishi bilan izohlanadi (2-rasm).



2-rasm. Mintaqaviy taqqoslama tahlil³


2024-yil oktabr holatiga ko'ra, UNESCO Jahon merosi ro'yxatida dunyoning 170 ta davlatida joylashgan jami 1 248 ta obyekt mavjud bo'lib, shundan 972 tasi madaniy, 235 tasi tabiiy va 41 tasi aralash toifaga mansubdir.

Madaniy meros obyektlarining hududlar bo'yicha taqsimoti sezilarli tafovutlarga ega. Jumladan, hududiy jihatdan Afrikadan ancha kichik bo'lgan Yevropada 473 ta madaniy meros obyekti ro'yxatga olingan bo'lsa,

2 Muallif ishlanmasi
3 Muallif ishlanmasi



Afrikada ushbu ko'rsatkich 63 tani tashkil etadi. Osiyo va Tinch okeani mintaqasi 220 ta obyekt bilan ikkinchi o'rinni, Amerika mintaqasi esa 105 ta obyekt bilan uchinchi o'rinni egallaydi (3-rasm).



3-rasm. UNESCO madaniy meros obyektlari va mintaqaviy taqsimot⁴

UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, barcha xalqaro turistlarning o'rtacha 39 foizdan ortig'i madaniy turistlar sifatida tasniflanadi. Ushbu ko'rsatkich yildan yilga o'sib bormoqda. Yevropa Ittifoqining 27 ta davlati bo'yicha amalga oshirilgan panel tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, har bir yangi UNESCO obyekti turistlar sonining 0,22 foizga oshishiga xizmat qiladi. Bu esa UNESCO obyektlari madaniy omillar orasida turizm oqimlariga eng sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri ekanligini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval Xalqaro turizmndagi asosiy ko'rsatkichlar (2015-2024)⁵

Yil	Turistlar soni (mlrd)	O'zgarish (%)	Holat
2015	1,19	+4,6	O'sish davri
2017	1,33	+7,2	Eng yuqori o'sish
2019	1,50	+3,8	Rekord (pandemiyagacha)
2020	0,40	-73,0	Pandemiya inqirozi
2022	0,96	+113,3	Tiklanish boshlandi
2023	1,30	+35,0	88% tiklanish
2024	1,40	+11,0	To'liq tiklanish (99%)

Manba: UNWTO World Tourism Barometer, 2015-2025

2015–2024-yillar davomidagi trend tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro turizm pandemiya kabi keng ko'lamli sinovlardan keyin ham yuqori tiklanish salohiyatiga ega. 2019-yilda 1,5 milliard nafar turist bilan rekord ko'rsatkich qayd etilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 1,4 milliardga yetib, pandemiyagacha bo'lgan darajaning 99 foizini tashkil etdi. Ushbu tiklanish jarayonida madaniy meros obyektlari muhim tortuvchi omil (pull factor) sifatida namoyon bo'lgani tadqiqotchilar tomonidan alohida ta'kidlanadi. Timothy (2020) qayd etganidek, madaniy meros turistlarga boshqa hududlarda uchramaydigan noyob va autentik tajribani taqdim

4 Muallif ishlanmasi

5 Muallif ishlanmasi

etadi. Aynan shu jihat madaniy turizmni ommaviy turizmning boshqa shakllaridan ajratib turuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Natijalar tahlili mintaqalar kesimida muhim tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, Yaqin Sharq 2024-yilda pandemiyagacha bo'lgan darajadan 32 foiz yuqori natijaga erishgan bo'lsa, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi 2019-yil ko'rsatkichining 82 foizigacha tiklangan. Ushbu tafovutni faqat siyosiy yoki logistika omillari bilan izohlash yetarli emas. UNESCO obyektlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishidagi farqlar ham turizm oqimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Yevropada 473 ta madaniy meros obyekti mavjud bo'lsa, Afrikada ushbu ko'rsatkich 63 tani tashkil etadi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, har bir yangi UNESCO obyekti turistlar sonining o'rtacha 0,22 foizga oshishiga xizmat qiladi.

McKercher va Du Cros (2002) tomonidan ishlab chiqilgan madaniy turizm modeli ham ushbu xulosani qo'llab-quvvatlaydi. Unga ko'ra, boy meros resurslariga ega hududlar turistlarni ko'proq jalb qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, biroq mavjud resurslarni samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanish ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yevropaning yetakchi mavqei nafaqat madaniy obyektlar soni, balki ularni yuqori qo'shilgan qiymatga ega turizm mahsulotiga aylantirish darajasi bilan ham izohlanadi.

Barcha xalqaro turistlarning 39 foizdan ortig'i madaniy turistlar sifatida tasniflanishi hamda UNWTOga a'zo davlatlarning 89 foizi madaniy turizmni milliy rivojlanish strategiyalariga kiritgani ushbu yo'nalishning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Richards (2018) ta'kidlaganidek, madaniy turizm bugungi kunda tor doiradagi sayohat turi emas, balki global miqyosdagi ommaviy hodisaga aylangan. Bu jarayon davlatlar oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash va ulardan turizm rivoji yo'lida samarali foydalanish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot madaniy meros obyektlari va xalqaro turizm oqimlari o'rtasidagi bog'liqlikni 2015–2024-yillar davomida UNWTO va UNESCO statistik ma'lumotlari asosida deskriptiv hamda trend tahlili usullari yordamida o'rganishga qaratildi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi muhim xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, xalqaro turizm so'nggi o'n yillik davomida barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. 2019-yilda 1,5 milliard nafar turist bilan rekord ko'rsatkich qayd etilgan bo'lsa, 2024-yilda 1,4 milliard nafar turist bilan pandemiyagacha bo'lgan darajaning 99 foiziga erishildi. Mazkur natija turizm sohasining yuqori moslashuvchanligi va tiklanish salohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Ikkinchidan, madaniy meros xalqaro turizm oqimlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqaro turistlarning 39 foizdan ortig'i madaniy turistlar sifatida tasniflanishi hamda UNESCO Jahon merosi maqomini olgan obyektlarda turizm oqimining o'rtacha 7–10 foizga ortishi madaniy merosning turizm iqtisodiyotidagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, mintaqalar o'rtasida madaniy meros obyektlarining taqsimlanishida sezilarli tafovutlar mavjud. Jumladan, Yevropada 473 ta madaniy meros obyekti ro'yxatga olingan bo'lsa, Afrikada ushbu ko'rsatkich 63 tani tashkil etadi. Mazkur farqlar xalqaro turizm oqimlarining hududlar bo'yicha shakllanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi va madaniy merosni xalqaro miqyosda muvozanatli rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, UNWTOga a'zo davlatlarning 89 foizi madaniy turizmni milliy rivojlanish strategiyalariga kiritgani ushbu yo'nalishning davlat darajasidagi ustuvor ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash va ulardan turizm rivoji yo'lida samarali foydalanish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

madaniy meros salohiyati nisbatan kamroq namoyon bo'lgan hududlarda, xususan Afrika va Janubiy Osiyo mamlakatlarida UNESCO nominatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash;

madaniy meros obyektlari atrofida zamonaviy turizm infratuzilmasini rivojlantirish;

madaniy merosni muhofaza qilish va turizm daromadlarini oshirishni uyg'unlashtiruvchi barqaror boshqaruv modellarini joriy etish;

madaniy turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish hamda ularning xalqaro bozordagi jozibadorligini oshirish.

Madaniy meros zamonaviy xalqaro turizmning nafaqat asosiy resurslaridan biri, balki uning rivojlanishini rag'batlantiruvchi muhim omil ham hisoblanadi. Uni asrab-avaylash va samarali boshqarish kelajak avlodlar uchun madaniy qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. McKercher, B., & Du Cros, H. (2002). *Cultural Tourism: The Partnership between Tourism and Cultural Heritage Management*. New York: Haworth Hospitality Press.
2. McKercher, B., Ho, P. S. Y., & Du Cros, H. (2005). Relationship between tourism and cultural heritage management: Evidence from Hong Kong. *Tourism Management*, 26(4), 539–548. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2004.02.018>
3. Richards, G. (2018). Cultural tourism: A review of recent research and trends. *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 36, 12–21. <https://doi.org/10.1016/j.jhtm.2018.03.005>
4. Timothy, D. J. (2011). *Cultural Heritage and Tourism: An Introduction* (1st ed.). Bristol: Channel View Publications.
5. Timothy, D. J. (2020). *Cultural Heritage and Tourism: An Introduction* (2nd ed.). Bristol: Channel View Publications. <https://doi.org/10.21832/TIMOTH7710>
6. UNWTO. (2018). *Tourism and Culture Synergies*. Madrid: World Tourism Organization. <https://doi.org/10.18111/9789284418978>
7. UNWTO. (2020). *UNWTO World Tourism Barometer*, 18(1). Madrid: World Tourism Organization. <https://doi.org/10.18111/wtobarometereng.2020.18.1.1>
8. UNWTO. (2024). *UNWTO World Tourism Barometer*, 22(1). Madrid: World Tourism Organization. <https://doi.org/10.18111/wtobarometereng.2024.22.1.1>
9. UNWTO. (2025). *UNWTO World Tourism Barometer*, 23(1). Madrid: World Tourism Organization. <https://doi.org/10.18111/wtobarometereng.2025.23.1.1>
10. UNESCO. (2024). *World Heritage List*. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Available at: <https://whc.unesco.org/en/list/>
11. Ciriaco-Valerio, J., et al. (2024). The influence of World Heritage Sites on tourism dynamics in the EU-27 nations. *Sustainability*, 16(20), 9090. <https://doi.org/10.3390/su16209090>
12. OECD. (2018). *Tourism Trends and Policies 2018*. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/tour-2018-en>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100